

TALABALARDA AXLOQIY-ESTETIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Hamroyeva Oynisa Farxod qizi

Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

METHODICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF ETHICAL AND AESTHETIC CULTURE IN STUDENTS

Hamroyeva Oynisa Farhod qizi

Fergana State University
Teacher of the Department of Pedagogy

Annotation: This article describes the possibilities and effectiveness of using different methods in the formation of moral and aesthetic culture of students in higher education.

Keywords: aesthetic taste, moral culture, fiction, synchro, method

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim bosqichida tahsil olayotgan talabalarning axloqiy va estetik madaniyatini shakllantirishda turli xil metodlardan foydalanishning imkoniyatlari va samarasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'z: estetik did, axloqiy madaniyat, badiiy adabiyot, Sinkveyn, metod

Bugungi globallashtirish jarayonida atrofimizdagi olamni badiiy idrok etish zamirida estetik dunyoqarash shakllanganligi muhim omil sanaladi. Pedagogika sohasining tub negizida ta'lim oluvchi shaxsning axloqiy-estetik madaniyatini shakllantirgan holda takomillashtirish – har bir shaxs idealida ijodiy zakovatni oshirishga, yuksak axloqiy saviyaga ega bo'lishga, nozik estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatimizda estetik pozitsiyani yaxshilash – yoshlarning zamonaviy axloqiy-estetik madaniyati orqali barkamollikka erishish mobaynida ijtimoiy taraqqiyot strategiyalarini anglashga, millat manfaatlari yo'lida mas'uliyat hissi uyg'onishga poydevor bo'ladi. Xususan, oliy ta'lim muassasasi talabalarida axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishda har bir pedagog kadr o'z bilim va tajribasidan kelib chiqqan holda, talabalarning fan va tayanch kompetensiyalarini mustahkamlashda, kognitiv bilimlarini yuzaga chiqarishda, kreativ g'oyalarni qo'llab quvvatlashda metodik imkoniyatlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida estetik did va axloqiy madaniyatni shakllantirishda o'ziga xos metodlardan foydalanish yoshlarning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi obyektiv estetika o'lchovi bo'lib, go'zallik, xunuklik va tubanlikka, muhabbat tuyg'usi va nafrat hislariga munosabat bildirishda har qanday insoniy emotsional tuyg'ularni baholashda subyektiv yondashuvni ifodalaydi.

Agar talabalarga sifatli ta'lim-tarbiya berilsa, axloqiy-estetik madaniyat tushunchalarini o'zlashtirib olishga, ajoyib san'at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o'z fikr-mulohazalari to'g'ri ekanligini qattiq turib himoya qilishga yordam

beradi. Oliy talim muassasasi talabalari hayoti san`atda go`zallik, xunuklik, zavq-shavq xilma-xil turiga duch keladi. Ular g`oyaviy yo`nalishi va mazmuni jihatidan turlicha bo`lib badiiy hamda san`atga doir jarayonlarning mohiyatini to`g`ri anglashda pedagogika, adabiyot, estetika, musiqa, tasviriy san`at madaniyati kabi fanlarda go`zallik va uni sevish mavzusidagi darslar hamda ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarda olib boriladigan xilma-xil mashg`ulotlar yordam beradi.

Masalan, Alisher Navoiy g`azallarida ishq va muhabbat talqini mavzusini talabalarga tushuntirish davomida ularda axloqiy estetik madaniyatini shakllantirishda metodik imkoniyatlarni ko`rib chiqamiz:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro` kelmadi

Ko`zlarimg`a kecha tong otquncha uyqu kelmadi

Lahza-lahza chiqdimu chekdim yo`lida intizor

Keldi jon og`zimg`a yu ul sho`xi badxo` kelmadi...

Ushbu g`azalda ishq taronasi, yorga muhabbat tuyg`usi ,vafo va sadoqat ruhi tarannum etilgan. Badiiy adabiyot nafosat va axloq tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega . Aynan Navoiyning "Kelmadi" radifli g`azali Alloh va yorga bo`lgan pok muhabbatning ifodasi ekanligini tushuntiramiz. G`azalda kelgan ishq tushunchasiga "Sinkveyn" metodi orqali har bir talabaga o`z fikrlarini bildirish topshirig`ini beramiz.

Kalit so`z: *Ishq.*

Ikkita sifat bilan ifodalang: *go`zal, pok.*

Ikkita fe'l bilan ifodalang: *poklaydi, iymonini mustahkamlaydi.*

Yoyiq gap bilan ifodalang: *Haqiqiy ishq insonni ezgulik tomon yetaklaydi.*

Sinonim so`zlarni toping: *muhabbat, sevgi.*

Har bir talaba "Sinkveyn" metodi orqali ishq haqida bildirgan fikrlarini aytib bo`lgach, Alisher Navoiyning ushbu "Kelmadi" radifli g`azali "Munojaat" kuyida gavdalangani musiqaning ruhiy kechinmalariga har bir talabaning shaxsiy munosabatlari tinglanadi. Bu jarayonda musiqa va adabiyot ta'limda integrativ yondashuvga xizmat qilishi aks etadi. G`azalning talabalar ongiga mustahkam singdirishda "Juftini top" metodini qo`llasak maqsadga muvofiq bo`ladi. Bunda g`azallardagi satrlar betartib beriladi. Ularni o`z o`rniga moslab, to`g`ri tartibga keltirish mobaynida talabalarning zehni va diqqati mustahkamlanishiga, har bir satrni o`qish davomida ularda axloqiy va estetik zavq oshirishiga imkon beradi:

Kecha kelgumdir debon	chekdim yo`lida intizor
Ko`zlarimg`a kecha tong	gar etti ehtiyot
Lahza lahza chiqdimu	qorong`u kelmadi
Keldi jon og`zing`ayu	ul sarvi gulro` kelmadi
Orazidek oydin erkonda	yig`ladim devonavor
Ro`zg`orimdek ham o`lg`onda	otquncha uyqu kelmadi
Ul parivash hajridakim	ko`rganda kulgu kelmadi
Kimsa bormu kim anga	ul sho`xi badxo` kelmadi

Pedagogika darslarida Sharq va G`arb allomalari, shoir, yozuvchi va bastakorlarning ijodiy merosi bilan talabalarni tanishtirar ekanmiz, ular yaratgan nodir asar durdonalari ta`limiy-tarbiyaviy xarakterga ega ekanligini anglashlari davomida, ushbu ijodiy asarlar axloqiy-estetik madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilishi, ular darsni turli xil metodikalar, pedagogik texnologiyalar bilan kreativ yondashish asosida tashkil etilishiga e`tibor qaratmoq lozim.

Zero, talabalarning go`zallik bilan bevosita muloqotda bo`lishlari ularga ko`proq hissiy ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham har bir pedagog ta`lim-tarbiya ishlarini tashkil etish davomida talabalarni badiiy jihatdan yuksak bo`lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e`tibor qaratmog`i lozim. Tasviriy san`at, haykaltaroshlik va me`moriy asarlar namunalari bilan talabalarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziq, rang va kolorit uyg`unligini idrok etish tuyg`ulariga ega bo`lishlarini ta`minlashga xizmat qiladi. Adabiy asarlar esa talabalarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o`stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg`armasi, 2006.
2. Xayrullaev M.M. O`tmish mutafakkirlari ta`lim – tarbiya haqida (Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi). 1-kitob. - Toshkent: O`zPFITI, 1992.
3. Верб М.А. Эстетические аспекты подготовки будущего учителя / В сб. межвузовских научных трудов – «Проблемы эстетического воспитания студентов педагогических вузов в свете реформы школы». – Л.: Ленингр. гос. пед. инст-т им. А.И.Герцена, 1988.